



INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER


p-ISSN 2992-9229

e-ISSN 3060-5318



# TURKOLOGIK TADQIQOTLAR

Xalqaro ilmiy jurnal



SAMARQAND – 2026

p-ISSN 2992-9229

e-ISSN 3060-5318



# TURKOLOGIK TADQIQOTLAR

XALQARO ILMIY JURNALI


“TURKOLOGICAL RESEARCH” INTERNATIONAL SCIENTIFIC  
JOURNAL

ULUSLARARASI “TÜRKOLÖJİ ARAŞTIRMALARI” DERGİSİ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ”



Jurnal rasmiy sayti: <https://turkologiya.samdu.uz/>



SAMARQAND – 2026



# “TURKOLOGIK TADQIQOTLAR”

## XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL “TURKOLOGICAL RESEARCH”

ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ

ИССЛЕДОВАНИЯ”

Bosh muharrir:	Bosh muharrir o‘rinbosari:
<b>Juliboy ELTAZAROV</b> <i>f.f.d., professor (O‘zbekiston)</i>	<b>Roxila RUZMANOVA</b> <i>f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)</i>
TAHRIRIYAT KENGASHI:	
<p><b>Rustam XALMURADOV</b> – t.f.d., professor, Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti rektori (O‘zbekiston);</p> <p><b>Hakim XUSHVAQTOV</b> – f.m.f.d., professor, Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori (O‘zbekiston);</p> <p><b>Akmal AHATOV</b> – t.f.d., professor, Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektori (O‘zbekiston);</p> <p><b>Muslihiddin MUHIDDINOV</b> – f.f.d., professor (O‘zbekiston);</p> <p><b>Ibodulla MIRZAYEV</b> – f.f.d., professor (O‘zbekiston);</p> <p><b>Shuhrat SIROJIDDINOV</b> – f.f.d., professor (O‘zbekiston);</p> <p><b>Suyun KARIMOV</b> – f.f.d., professor (O‘zbekiston);</p> <p><b>Murodqosim ABDIYEV</b> – f.f.d., professor (O‘zbekiston);</p> <p><b>Azamat PARDAYEV</b> – f.f.d., professor (O‘zbekiston);</p> <p><b>Musa YULDASHEV</b> – f.f.n., professor (O‘zbekiston);</p> <p><b>Dilfuza DJURAKULOVA</b> – t.f.n., professor (O‘zbekiston);</p> <p><b>Aftondil ERKINOV</b> – f.f.d., professor (O‘zbekiston);</p> <p><b>Qosimjon SODIQOV</b> – f.f.d., professor (O‘zbekiston);</p> <p><b>Muhabbat QURBONOVA</b> – f.f.d., professor (O‘zbekiston);</p>	<p><b>Ali AKAR</b> – f.f.d., professor (Turkiya);</p> <p><b>Abduselam ARVAS</b> – f.f.d., professor (Turkiya);</p> <p><b>Funda TOPRAK</b> – f.f.d., professor (Turkiya);</p> <p><b>Musa Shamil YUKSEL</b> – f.f.d., professor (Turkiya);</p> <p><b>Temur KOJAO‘G‘LI</b> – f.f.d., professor (AQSH);</p> <p><b>Hayrunnisa ALAN</b> – f.f.d., professor (Turkiya);</p> <p><b>Varis CHAKAN</b> – f.f.d., professor (Turkiya);</p> <p><b>Elchin IBROHIMOV</b> – f.f.d., professor (Ozarbayjon);</p> <p><b>Emrah YILMAZ</b> – Phd, dotsent (Turkiya);</p> <p><b>Foziljon SHUKUROV</b> – Phd, dotsent (O‘zbekiston);</p> <p><b>Dilshod XURSANOV</b> – Phd, dotsent (O‘zbekiston);</p> <p><b>Shahnoza XUSHMURODOVA</b> – DSc, professor (O‘zbekiston);</p> <p><b>Dinara ISLAMOVA</b> – Phd, dotsent (O‘zbekiston);</p> <p><b>Feruza JUMANIYAZOVA</b> – Phd, dotsent (O‘zbekiston);</p> <p><b>Istoda RASULOVA</b> – Phd, dotsent (O‘zbekiston);</p> <p><b>Dilorom MUMINOVA</b> – Phd, dotsent (O‘zbekiston);</p> <p><b>Zarifa XUSANOVA</b> – Phd, dotsent (O‘zbekiston);</p> <p><b>Ahmadjon MAVLONOV</b> – Phd, dotsent (O‘zbekiston);</p> <p><b>Ilyos JO‘RAYEV</b> – Phd, dotsent (O‘zbekiston);</p> <p><b>Ibodullo ZUBAYDULLAYEV</b> – Phd, dotsent (O‘zbekiston);</p> <p><b>Bahora YUNUSOVA</b> – Phd, dotsent (O‘zbekiston);</p> <p><b>Feruza MANUKYAN</b> – Phd (O‘zbekiston);</p> <p>Mas’ul muharrir: <b>PhD, dotsent Zokir BAYNAZAROV</b> (O‘zbekiston);</p> <p>Texnik xodim: <b>Raxmatulla SHOKIROV</b> (O‘zbekiston).</p>



# “TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL RESEARCH”  
ULUSLARARASI “TÜRKOLÖJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ  
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ”

**Главный редактор:**

**Жулибой ЭЛТАЗАРОВ**

*д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

**Заместитель главного редактора:**

**Рохила РУЗМАНОВА**

*к.ф.н., доцент (Узбекистан)*

## РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

**Рустам ХАЛМУРАДОВ** – д.т.н., профессор, ректор Самаркандского государственного университета имени Ш.Рашидова (Узбекистан);

**Хаким ХУШВАКТОВ** – д.ф.м.н., профессор, проректор по научной работе и инновациям Самаркандского государственного университета имени Ш.Рашидова (Узбекистан);

**Акмал АХАТОВ** – д.т.н., профессор, проректор по международному сотрудничеству Самаркандского государственного университета имени Ш.Рашидова (Узбекистан);

**Муслихиддин МУХИДДИНОВ** – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

**Ибодулла МИРЗАЕВ** – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

**Шухрат СИРОЖИДДИНОВ** – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

**Суюн КАРИМОВ** – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

**Муродкасым АБДИЕВ** – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

**Азамат ПАРДАЕВ** – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

**Муса ЮЛДАШЕВ** – к.ф.н., профессор (Узбекистан);

**Дилфуза ДЖУРАКУЛОВА** – к.и.н., доцент (Узбекистан);

**Афтондил ЭРКИНОВ** – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

**Касимжон СОДИКОВ** – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

**Мухаббат КУРБАНОВА** – д.ф.н., профессор (Узбекистан);

**Али АКАР** – д.ф.н., профессор (Турция);

**Абдуселам АРВАС** – д.ф.н., профессор (Турция);

**Фунда ТОПРАК** – д.ф.н., профессор (Турция);

**Муса Шамиль ЮКСЕЛЬ** – д.ф.н., профессор (Турция);

**Темур КОДЖАОГЛУ** – д.ф.н., профессор (США);

**Хайрунниса АЛАН** – д.ф.н., профессор (Турция);

**Варис ЧАКАН** – д.ф.н., профессор (Турция);

**Эльчин ИБРАГИМОВ** – д.ф.н., профессор (Азербайджан).

**Эмрах ЙИЛМАЗ** – PhD, доцент (Турция);

**Фозилжон ШУКУРОВ** – PhD, доцент (Узбекистан);

**Дилшод ХУРСАНОВ** – PhD, доцент (Узбекистан);

**Шахноза ХУШМУРОВА** – DSc, профессор (Узбекистан);

**Динара ИСЛАМОВА** – PhD, доцент (Узбекистан);

**Феруза ДЖУМАНИЯЗОВА** – PhD, доцент (Узбекистан);

**Истода РАСУЛОВА** – PhD, доцент (Узбекистан);

**Дилором МУМИНОВА** – PhD, доцент (Узбекистан);

**Зарифа ХУСАНОВА** – PhD, доцент (Узбекистан);

**Ахмаджон МАВЛОНОВ** – PhD, доцент (Узбекистан);

**Илёс ЖУРАЕВ** – PhD, доцент (Узбекистан);

**Иболулло ЗУБАЙДУЛЛАЕВ** – PhD, доцент (Узбекистан);

**Бахора ЮНУСОВА** – PhD, доцент (Узбекистан);

**Феруза МАНУКЯН** – PhD (Узбекистан);

Ответственный редактор: **PhD, доцент Зокир БАЙНАЗАРОВ** (Узбекистан)

Технический персонал: **Рахматулла ШОКИРОВ** (Узбекистан)





# “TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL RESEARCH”  
ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSSEL DERGİSİ  
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ”

**Chief Editor:/ Deputy Chief Editor:**

*Prof. Dr. Juliboy ELTAZAROV (Uzbekistan)*  
*Ass. Prof. Dr. Rokhila RUZMANOVA (Uzbekistan)*

**Baş Editör:/ Baş Editör Yardımcısı:**

*Prof. Dr. Juliboy ELTAZAROV (Özbekistan)*  
*Doç. Dr. Rohila RUZMANOVA (Özbekistan)*

## EDITORIAL TEAM:/ BİLİM KURULU:

*Prof. Dr. Rustam KHALMURADOV* – Rector of Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);  
*Prof. Dr. Hakim KHUSHVAKTOV* – Vice-Rector for Research and Innovation, Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);  
*Prof. Dr. Akmal AKHATOV* – Vice-Rector for International Cooperation of Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);  
*Prof. Dr. Muslihiddin MUKHIDDINOV* (Uzbekistan);  
*Prof. Dr. Ibodulla MIRZAEV* (Uzbekistan);  
*Prof. Dr. Shukhrat SIROJIDDINOV* (Uzbekistan);  
*Prof. Dr. Suyun KARIMOV* (Uzbekistan);  
*Prof. Dr. Murodkasim ABDIEV* (Uzbekistan);  
*Prof. Dr. Azamat PARDAEV* (Uzbekistan);  
*Prof. Dr. Musa YULDASHEV* (Uzbekistan);  
*Ass. Prof. Dr. Dilfuza DJURAKULOVA* (Uzbekistan);  
*Prof. Dr. Aftondil ERKINOV* (Uzbekistan);  
*Prof. Dr. Kasimjon SODIKOV* (Uzbekistan);  
*Prof. Dr. Muhabbat KURBANOVA* (Uzbekistan);  
*Prof. Dr. Ali AKAR* (Turkey);  
*Prof. Dr. Abduselam ARVAS* (Turkey);  
*Prof. Dr. Funda TOPRAK* (Turkey);  
*Prof. Dr. Musa Shamil YUKSEL* (Turkey);  
*Prof. Dr. Temur KOJA OGLU* (USA);  
*Prof. Dr. Hayrunnisa ALAN* (Turkey);  
*Prof. Dr. Varis CHAKAN* (Turkey);  
*Prof. Dr. Elchin IBRAHIMOV* (Azerbaijan);  
*Ass. Prof. PhD. Emrah YILMAZ* (Turkey);  
*Ass. Prof. PhD. Foziljon SHUKUROV* (Uzbekistan);  
*Ass. Prof. PhD. Dilshod KHURSANOV* (Uzbekistan);  
*Ass. Prof. PhD. Shakhnoza KHUSHMURODOVA* (Uzbekistan);  
*Ass. Prof. PhD. Dinara ISLAMOVA* (Uzbekistan);  
*Ass. Prof. PhD. Feruza JUMANIYAZOVA* (Uzbekistan);  
*Ass. Prof. PhD. Istoda RASULOVA* (Uzbekistan);  
*Ass. Prof. PhD. Dilorom MUMINOVA* (Uzbekistan);  
*Ass. Prof. PhD. Zarifa KHUSANOVA* (Uzbekistan);  
*Ass. Prof. PhD. Akhmadjon MAVLONOV* (Uzbekistan);  
*Ass. Prof. PhD. Ilyos JURAYEV* (Uzbekistan);  
*Ass. Prof. PhD. Ibodullo ZUBAYDULLAYEV* (Uzbekistan);  
*Ass. Prof. PhD. Bakhora YUNUSOVA* (Uzbekistan);  
*PhD. Feruza MANUKYAN* (Uzbekistan);  
Managing editor: *Ass. Prof. PhD. Zokir BAYNAZAROV* (Uzbekistan)  
Technical staff: *Rakhmatulla SHOKIROV* (Uzbekistan)

*Prof. Dr. Rustam HALMURADOV* – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Rektörü (Özbekistan);  
*Prof. Dr. Hakim HUŞVAKTOV* – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Araştırma ve İnovasyondan Sorumlu Rektör Yardımcısı (Özbekistan);  
*Prof. Dr. Akmal AHATOV* – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Uluslararası İşbirliğinden Sorumlu Rektör Yardımcısı (Özbekistan);  
*Prof. Dr. Muslihiddin MUHİDDİNOV* (Özbekistan);  
*Prof. Dr. İbodulla MİRZAYEV* (Özbekistan);  
*Prof. Dr. Şuhrat SİROCİDDİNOV* (Özbekistan);  
*Prof. Dr. Suyun KARİMOV* (Özbekistan);  
*Prof. Dr. Murodkasım ABDİYEY* (Özbekistan);  
*Prof. Dr. Azamat PARDAYEV* (Özbekistan);  
*Prof. Dr. Musa YULDAŞEV* (Özbekistan);  
*Doç. Dr. Dilfuza CURAKULOVA* (Özbekistan);  
*Prof. Dr. Aftondil ERKİNOV* (Özbekistan);  
*Prof. Dr. Kasimcon SODİKOV* (Özbekistan);  
*Prof. Dr. Muhabbat KURBANOVA* (Özbekistan);  
*Prof. Dr. Ali AKAR* (Türkiye);  
*Prof. Dr. Abdusaleem ARVAS* (Türkiye);  
*Prof. Dr. Funda TOPRAK* (Türkiye);  
*Prof. Dr. Musa Şamil YÜKSEL* (Türkiye);  
*Prof. Dr. Timur KOCAOĞLU* (ABD);  
*Prof. Dr. Hayrunnisa ALAN* (Türkiye);  
*Prof. Dr. Varis ÇAKAN* (Türkiye);  
*Prof. Dr. Elçin İBRAHİMOV* (Azerbaycan);  
*Doç. Dr. Emrah YILMAZ* (Türkiye);  
*Doç. Dr. Fozilcon ŞUKUROV* (Özbekistan);  
*Doç. Dr. Dilşod HURSAVOV* (Özbekistan);  
*Prof. Dr. Şahnoza HUŞMURODOVA* (Özbekistan);  
*Doç. Dr. Dinara İSLAMOVA* (Özbekistan);  
*Doç. Dr. Feruza CUMANIYAZOVA* (Özbekistan);  
*Doç. Dr. Istoda RASULOVA* (Özbekistan);  
*Doç. Dr. Dilorom MUMİNOVA* (Özbekistan);  
*Doç. Dr. Zarifa HUSANOVA* (Özbekistan);  
*Doç. Dr. Ahmadjon MAVLONOV* (Özbekistan);  
*Doç. Dr. Ilyos JÖRAYEV* (Özbekistan);  
*Doç. Dr. Ibodullo ZUBAYDULLAYEV* (Özbekistan);  
*Doç. Dr. Bahora YUNUSOVA* (Özbekistan);  
*Dr. Feruza MANUKYAN* (Özbekistan);  
Sorumlu Editör: *Doç., Dr. Zokir BAYNAZAROV* (Özbekistan)  
Teknik Personel: *Rahmatullah ŞOKİROV* (Özbekistan)

MUNDARIJA | CONTENT | İÇERİK | СОДЕРЖАНИЕ

BOKU QURULTOYINING 100 YILLIGI

**Inomjon AZIMOV**

I-Turkologiya qurultoyida yozuv masalasi..... 8

**МАРАЗЫКОВ Турусбек Сейдакматович**

Бир тутумдуу жөнөкөй сүйлөмдөрдү классификациялоодо айрым бир маселелер..... 17

**Elçin İBRAHİMOV**

Birinci Türkoloji qurultayda əlifba müzakirələri .....27

**Jo'ra Ochilovich XUDOYBERDIYEV**

Rossiyada turkologiya qurultoyini chaqirishga qilingan harakatlar .....48

**Emrah YILMAZ**

Türkiye’de Türkoloji’nin tarihsel seyri ve akademik inşası.....62

**Hezretguli DURDIYEV, Kasım GAYİPOV**

Latin alfabesine gechiş sürecinde Birinci Türkoloji Kurultayı’nın stratejik rolü.....82

TURKOLOG OLIMLAR HAYOTI

**ЮЛДАШЕВ Мусо Мухаммадиевич, ЮЛДАШЕВА Дильшода Мусаевна**

Игорь Валентинович Кормушин и его вклад в развитие тюркологии: исследовательское, организационное и международное измерения.....90

TURKIY TILLAR VA TILSHUNOSLIKKA OID TADQIQOTLAR

**Игорь Валентинович КОРМУШИН**

О некоторых особенностях данных Махмуда Кашгари по тюркским диалектам XI в. ....100

**СДОБНИКОВ Вадим Витальевич**

Основные подходы к переводу священного корана на узбекский и русский языки .....107

**ЗУБАЙДУЛЛАЕВ Ибодулло Амриллоевич**

Роль тюркских языков как посредников в заимствовании исламской религиозной лексики в русский язык: исторический и лингвокультурологический аспекты.....116

**Narbibiş ŞAMMAYEWA**

Frazeologik birlikleriñ sözlükde yerleşdirilişi.....123

**XOLMANOVA Zulxumor Turdiyevna**

Turkiy tillardagi lug‘aviy birliklarning milliy tafakkurni aks ettirish va ma’lumot berish funksiyasi.....130

**MAVLONOV Axmadjon Xoshimovich**

Qipchoq shevasi leksikasining tarkibiy-mazmuniy tahlili.....137

**Nuriddin Abdumannonovich ALTINBOYEV**

Turk maqollarida zoonimlarning lingvomadaniy talqini: oila konsepti doirasida.....148

**Shakhnoza KHUSHMURODOVA**

The social nature of language and its role in shaping identity .....156

**XUSANOVA Gulasal Shuhratjon qizi**

Turli millat o‘yinlari nomlarining etimologik tahlili .....161

ADABIY ALOQALAR, QIYOSIY TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK

**SALOHİY Dilorom Isomiddin qizi**

“Boburnoma”da ayollar timsollari tadqiqi .....167

**Ekrem Çulfa**

21. yüzyılın Psikososyal ve pedagojik krizlerine karşı bir panzehir: Ali Şir Nevâî’nin “insan-ı kâmil” paradigması .....178

**Akram Haydarovich TOSHPO‘LATOV**

Metamorfoza hodisasining badiiy-falsafiy ahamiyati .....188

**Foziljon SHUKUROV**

Isomiy Samarqandiyning “Futuh us-salotin” asarida Nizomiy dostonchilik an’analari ergashish.....197

**MUXITDINOVA Badia Muslihiddinovna, AXMEDOVA Baxtigul Xaitmurot qizi**

“Alpomish” dostoni va “Kitobi Dada Qo‘rqut” asarida farzandsizlik motivi .....205

**ЮСУПОВА Шохсанам Мирзали кизи**

Прагматический анализ табуированных единиц в художественном тексте и методика интерпретации в полиэтнической аудитории .....210

TURKIY XALQLAR TARIXI

**Zhalgas AYTAMURATOV, Janilsin AYTAMURATOVA**

İlk Karakalpak oyuncusu ve sanat emekçisi.....217

**DAVRONOV Xolbek Zokir o‘g‘li**

XVI asr ikkinchi yarmida Usmonli – Buxoro diplomatiyasi va unda Eron omili .....225

**Shoira HAMDAMOVA**

Samarqand viloyatida vaqf mulklarining boshqaruvi: Maxdumi Xorazmiy madrasasi vaqfnomasi tahlili .....232



*Foto: Ozarbayjonning Turkiyadagi elchixonasi*

#### **AZIZ MUSHTARIY!**

*Jurnalimizning ushbu soni 100 yilligini nishonlayotganimiz Birinchi Boku Turkologiya qurultoyining tarixiy va ilmiy merosi, alifbo munozaralari hamda sohaning akademik shakllanishiga bag'ishlangan teran tadqiqotlarni o'z ichiga oladi. Maqolalarning asosiy mazmunini Mahmud Koshg'ariyning dialektologik ma'lumotlaridan tortib, Qur'oni Karimning o'zbek va rus tillaridagi tarjimalariga doir asosiy yondashuvlargacha, turkiy tillardagi leksik-semantik birliklarning milliy tafakkurni aks ettirish funksiyasidan madaniy o'zlikni shakllantirishdagi lisoniy omillargacha bo'lgan keng ko'lamli mavzular tashkil etadi. Shuningdek, rus tilidagi islomiy terminologiya shakllanishida turkiy tillarning vositachilik roli, maqollardagi zoonimlarning lingvokulturologik tahlili, frazeologik birliklarning leksikografik talqini va badiiy matnlardagi tabu birliklarning pragmatik tahlili kabi o'ziga xos mavzular fanlararo uslubda tadqiq etilgan. Alisher Navoiyning "Komil inson" paradigmasi, "Boburnoma"dagi ayollar timsollari, Alpomish va Qo'rqut ota kitobidagi mushtarak motivlar hamda Nizomiy dostonchilik an'analarining Futuhu's-Salotin asaridagi akslari sinchiklab o'rganilgan. Bundan tashqari, metamorfoza hodisasining falsafiy asoslari, XVI asr Usmonli–Buxoro diplomatiyasi, Samarqanddagi vaqf mulklari boshqaruvi va qoraqalpoq sahna san'atining ilk namoyandalari kabi sotsiomadaniy tadqiqotlar turkologiya sohasiga yangi ufqlarni ochib beradi. Tahrir hay'ati sifatida turkiy dunyoning til, tarix va san'at merosiga nur sochuvchi ushbu boy ilmiy xazinani sizlarga taqdim etayotganimizdan mamnunmiz.*

**TAHRIRIYAT**



**DEAR READER!**

*This issue of our journal brings together in-depth studies focusing on the historical and scientific legacy of the First Turkology Congress in Baku, of which we celebrate the 100th anniversary, along with alphabet discussions and the academic construction of the field. The core axis of the articles ranges from Mahmud al-Kashgari's dialectological data to the fundamental approaches in the translations of the Holy Quran into Uzbek and Russian; and from the function of lexical-semantic units in reflecting national thought in Turkic languages to linguistic factors in the shaping of cultural identity. Within this framework, unique topics such as the intermediary role of Turkic languages in the formation of Islamic terminology in Russian, the linguacultural analysis of zoonyms in proverbs, the lexicographical placement of phraseological units, and the pragmatic analysis of taboo expressions in literary texts have been examined through an interdisciplinary method. Ali Şîr Nevâî's "The Perfect Human" paradigm, female figures in the Baburnama, common motifs in Alpamysh and the Book of Dede Korkut, and the reflections of the Nizami poetic tradition in the work Fütûhü's-Selâtin have been meticulously analyzed. Furthermore, sociocultural studies such as the philosophical background of the metamorphosis phenomenon, 16th-century Ottoman–Bukhara diplomacy, the management of waqf properties in Samarkand, and the pioneers of Karakalpak performing arts open new windows for Turkology research. As the Editorial Board, we take great pride in presenting this rich heritage that sheds light on the linguistic, historical, and artistic legacy of the Turkic world.*

**EDITORIAL BOARD**

**SEVGİLİ OKUYUCU!**

*Dergimizin bu sayısı; 100. yılını idrak ettiğimiz Bakü Birinci Türkoloji Kurultayı'nın tarihsel ve bilimsel mirası, alfabe tartışmaları ve sahanın akademik inşası üzerine odaklanan derinlikli çalışmaları bir araya getirmektedir. Yazıların ana eksenini; Mahmut Kaşgarlı'nın diyalektolojik verilerinden Kur'an-ı Kerim'in Özbekçe ve Rusça tercümelerindeki temel yaklaşımlara, Türk lehçelerindeki leksik-semantik birimlerin milli tefekkürü yansıtırma işlevinden kültürel kimliğin şekillenmesindeki dilsel faktörlere kadar geniş bir yelpaze oluşturmaktadır. Bu çerçevede; Türk dillerinin Rusçadaki İslami terminolojinin oluşumundaki aracı rolü, atasözlerindeki zoonimlerin lingvokültürel tahlili, frazeolojik birimlerin leksikografik yerleşimi ve edebî metinlerdeki tabu ifadelerin pragmatik analizi gibi özgün konular disiplinlerarası bir yöntemle incelenmiştir. Ali Şîr Nevâî'nin "İnsan-ı Kâmil" paradigması, Babürnâme'deki kadın timsalleri, Alpamyş ve Kitab-ı Dede Korkut'taki ortak motifler ile Nizâmî destancılık geleneğinin Fütûhü's-Selâtin eserindeki akisleri titizlikle irdelenmiştir. Ayrıca metamorfoz hadisesinin felsefi arka planı, XVI. yüzyıl Osmanlı-Buhara diplomasisi, Semerkant'taki vakıf yönetimi ve Karakalpak sahne sanatlarının öncü isimleri gibi sosyokültürel çalışmalar, Türkoloji araştırmalarına yeni pencereler açmaktadır. Yayın Kurulu olarak; Türk dünyasının dil, tarih ve sanat mirasına ışık tutan bu zengin birikimi sizlerle buluşturmanın kıvancını yaşıyoruz.*

**YAYIN KURULU**

**УВАЖАЕМЫЙ ЧИТАТЕЛЬ!**

*В данный номер журнала включены исследования, посвященные историческому и научному наследию Первого Бакинского тюркологического съезда, 100-летие которого мы празднуем в текущем году, дебатам об алфавите и академическому становлению тюркологии. В центре внимания — широкий спектр тем: от диалектологических сведений Махмуда Кашгари до основных подходов к переводам Корана на узбекский и русский языки, от функции отражения национального сознания лексико-семантических единиц в тюркских языках до языковых факторов лутурного самосознания. Кроме того, в междисциплинарном аспекте исследованы такие темы, как посредническая функция тюркских языков в формировании исламской терминологии в русском языке, лингвокультурологический анализ зоонимов в пословицах. В выпуске основательно изучены парадигма «Совершенного человека» Алишера Навои, женские образы «Бабур-наме», общие мотивы в поэме «Алпамыш» и «Книге моего деда Коркута», а также традиции поэмотворчества Низами в произведении «Футух ус-салатин». Философские основы явления метаморфозы, вопросы Османско-Бухарской дипломатии XVI века, вакуфного управления в Самарканде, исследование первых представителей каракалпакского сценического искусства и другие социокультурные исследования открывают новые горизонты в тюркологии. Редакционная коллегия рада представить вам это богатое наследие, освещающее язык, историю и искусство тюркского мира.*

**РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ**



## ROSSIYADA TURKOLOGIYA QURULTOYINI CHAQIRISHGA QILINGAN HARAKATLAR

**Jo‘ra Ochilovich XUDOYBERDIYEV,**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili  
va adabiyoti universiteti katta o‘qituvchisi,

(Toshkent, O‘zbekiston)

 **E-mail:** [jxudayberdi@mail.ru](mailto:jxudayberdi@mail.ru)

 **ORCID:** 0000-0002-5362-0356

 **DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.19839665>

### Annotatsiya

1926-yilda Bokuda Birinchi butunittifoq turkologiya qurultoyi bo‘lib o‘tdi. Turkiy xalqlar tarixi, tili va adabiyoti masalalari muhokama qilingan ushbu qurultoy materiallari turlicha nuqtayi nazardan tahlil qilindi. Sobiq ittifoq matbuot nashrlari qurultoy turkiy xalqlar ijtimoiy-siyosiy hayotida ulkan voqea bo‘lganligini targ‘ib etib keldi. Xorijlik mutaxassislar tadqiqotlarida ushbu tadbir turkiy xalqlarni bolshevik mafkurasi asosida shakllantirishga qaratilgan muhim bir bosqich ekanligi qayd qilindi. Yigirmanchi yuzyillikning o‘ttizinchi va undan keyingi yillarida shu maqsaddagi harakatlar izchillik bilan olib borilganligi ko‘plab xorijiy adabiyotlarda aks etdi. Bunday qarama-qarshi fikrlarga sabab bo‘lgan manbalarni qayta ko‘rib chiqish, ularni xorijdagi tadqiqotlar hamda davr siyosati bilan qiyoslab o‘rganish turkologiya bilan shug‘ullanadigan olimlar, mutaxassislar oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Shu bilan birga, qurultoyini chaqirish to‘g‘risidagi fikr qachon va nima maqsadda paydo bo‘lganligini aniqlashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki o‘zbek tilshunoslari tadqiqotlarida bu haqda deyarli ma‘lumot yo‘q. Xorijdagi va rus tilshunosligidagi ishlarda esa bir-biriga mos kelmaydigan, ziddiyatli qarashlar ilgari surilgan.

**Kalit so‘zlar:** *turkologiya qurultoyi, arab alifbosi, lotin alifbosi, Rossiya turkologlari, Sharqshunoslik assotsiatsiyasi, A.N.Samoylovich, E.D.Polivanov, V.A.Gordlevskiy, N.Yakovlev, L.Jirkov, M.P.Pavlovich.*

---

## EFFORTS TO CONVENE A CONGRESS OF TURKOLOGY IN RUSSIA

**Jura XUDOYBERDIEV,**

Teacher at Tashkent State University of Uzbek Language  
and Literature named after Alisher Navoi

(Tashkent, Uzbekistan)

### Abstract

In 1926, the First All-Union Congress of Turkology was held in Baku. The materials of this congress, which discussed the issues of history, language, and literature of the Turkish peoples, were analyzed from different points of view. Press publications of the former union promoted the idea that the congress was a great figure in the social and political life of the Turkish people. In research by foreign experts, it was noted that this event is an important stage in forming the Turkish people on the basis of the Bolshevik ideology. The consistent efforts to achieve this goal in the 1930s and subsequent years of the twentieth century are reflected in numerous foreign publications. Reexamining the sources that led to such scholarly opinions, comparing them with foreign research and the political context of the time, is one of the important tasks facing scholars and specialists in Turkology.

At the same time, it is also important to clarify when and for what purpose the idea of summoning a songstress arose. Because there is almost no information about this in the research of Uzbek linguists. In contrast, in the works of foreign and Russian linguists, incompatible and contradictory historical views have been put forward.

**Key words:** *Turkology Songress, Arabis alphabet, Latin alphabet, Russian Turkologists, Oriental Studies Assosiation, A.N. Samoilovich, E.D. Polivanov, V.A. Gordlevsky, N. Yakovlev, L. Zhirkov, M.P. Pavlovish.*

---

## ПОПЫТКИ СОЗВАТЬ КОНГРЕСС ТЮРКОЛОГИИ В РОССИИ

**Жура Очилович ХУДОЙБЕРДИЕВ,**

Старший преподаватель Ташкентского государственного университета  
узбекского языка и литературы имени Алишера Навои  
(Ташкент, Узбекистан)

### Аннотация

В 1926 году в Баку состоялся Первый Всесоюзный тюркологический конгресс. Материалы этого конгресса, на котором обсуждались вопросы истории, языка и литературы тюркских народов, были проанализированы с разных точек зрения. В прессе бывшего союза утверждалось, что съезд стал важным событием в общественной и политической жизни тюркских народов. В исследованиях зарубежных экспертов отмечалось, что это событие является важным этапом, направленным на формирование тюркских народов на основе большевистской идеологии. Последовательные усилия по достижению этой цели в 1930-х годах и последующие годы двадцатого века нашли отражение во многих зарубежных публикациях. Переосмысление источников, приведших к столь противоречивым мнениям, в сравнении их с зарубежными исследованиями и политической обстановкой того времени, является одной из важных задач, стоящих перед учеными и специалистами, занимающимися тюркологией.

В то же время важно уточнить, когда и с какой целью возникла идея созыва конгресса. В исследованиях узбекских лингвистов об этом практически нет информации. Напротив, в зарубежных и российских лингвистических работах выдвигаются несовместимые и противоречивые точки зрения.

**Ключевые слова:** *Конгресс тюркологов, арабский алфавит, латинский алфавит, русские тюркологи, Ассоциация востоковедов, А.Н. Самойлович, Е.Д. Поливанов, В.А. Гордлевский, Н. Яковлев, Л. Жирков, М.П. Павлович.*

---

### Kirish

1926-yilda Bokuda Birinchi turkologiya qurultoyi bog‘lib o‘tdi. Turk xalqlari tarixi, tili va adabiyoti masalalari muhokama qilingan ushbu qurultoy materiallari [Первый Всесоюзный тюркологический съезд, 1926] turlicha nuqtayi nazardan tahlil qilindi. Sobiq ittifoq hududidagi matbuot nashrlari qurultoy turk xalqlari ijtimoiy-siyosiy hayotida ulkan voqea bo‘lganligini targ‘ib etib keldi [Багданова, 1930; В.С. Первый Всесоюзный тюркологический съезд, 1926; Иномев Рахим, 1926; Кононов, 1968; Мусаев, 1965; Усмонов, 1926; Юсупов, 1979]. Xorijlik mutaxassislar tadqiqotlarida ushbu tadbir turk xalqlarini bolshevik mafkurasi asosida shakllantirishga qaratilgan muhim bir bosqich ekanligi qayd qilindi [Arnold, 1929; Bilal, 1992; Bocon, 1966; Castagne, 1927; Castagne, 1926; Henze, 1957; Henze, 1956; Musabay, 1959]. Yigirmanchi yuzyillikning o‘ttizinchii va undan keyingi yillarida shu maqsaddagi harakatlar

izchillik bilan olib borilganligi ko‘plab xorijiy adabiyotlarda aks etdi. Bunday qarama-qarshi fikrlarga sabab bo‘lgan manbalarni qayta ko‘rib chiqish, ularni xorijdagi tadqiqotlar hamda davr siyosati bilan qiyoslab o‘rganish turkologiya bilan shug‘ullanadigan olimlar, mutaxassislar oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Shu bilan birga, qurultoyni chaqirish to‘g‘risidagi fikr qachon va nima maqsadda paydo bo‘lganligini aniqlashtirish ham kerakka o‘xshaydi. Chunki o‘zbek tilshunoslari tadqiqotlarida bu haqda deyarli ma‘lumot yo‘q. Xorijdagi va rus tilshunosligidagi ishlarda esa bir-biriga mos kelmaydigan, qarama-qarshi qarashlar mavjud.

Lotin alifbosi asosidagi turk xalqlari yozuvlari taraqqiyotini o‘rgangan Bilal N.Shimshirning Rossiyada turkologiya qurultoyini chaqirish fikri 1923-1924-yillarda paydo bo‘ldi va u 1925-yildan tayyorgarlik ishlari qizg‘in boshlandi deb yozadi [Bilal, 1992: 118]. F.D.Ashnin qurultoy chaqirishni A.N.Samoylovich 1922-yilda ilgari surgan, deb hioblaydi [Ашнин, 1976: 24-25]. Albatta, bu fikrlarda ma‘lum darajada haqiqat bor. Bular, asosan, Boku shahrida o‘tkazilgan Birinchi Butunittifoq turkologiya qurultoyini chaqirish bilan bog‘liq fikrlardir.

Biroq A.N.Samoylovichning Peterburgdan moskvalik turkolog olim V.A.Gordlevskiyga yozgan xatlari esa Rossiyada ushbu anjumanni o‘tkazish fikri ancha oldinroq tug‘ilganini ko‘rsatmoqda.

#### **Rossiyada turkologiya qurultoyini chaqirishga bo‘lgan dastlabki harakatlar**

Manbalarning guvohlik berishicha, Rossiyada turkologiya qurultoyini chaqirishga bo‘lgan dastlabki harakatlar 1913-yildan boshlanganini ko‘rsatmoqda. A.N.Samoylovichning 1913-yil 29-avgustda V.A.Gordlevskiyga yozgan xatida shunday jumlar bor: “В середине сентября жду в гости J.Deny из Парижа, который приготовил недурную османскую грамматику. Было очень приятно убедиться, что и среди османистов начинают появляться туркологии. Вам бы тоже было хорошо прикатить в Питер, устроили бы репетицию конгресса тюркологов, о конгрессе я мечтаю... идея которого встречает сочувствие на Западе” [Баскаков, 1973: 88].

Fransuz turkologi J.Deni Peterburgga kelganidan keyin A.N.Samoylovichning turkologiya syezdini o‘tkazish to‘g‘risidagi fikri bir qadar o‘zgargan. U V.A.Gordlevskiyga yozgan keyingi xatida (1913-yil 7-oktabr) syezd xususidagi fikri hozirchalik yarim hazil ekanligini alohida ta’kidlaydi: “Моя мысль о съезде тюркологов, можно сказать, пока полу-шутка” [Баскаков, 1973: 88].

A.N.Samoylovichning Rossiyadagi turkologlarni birlashtirish, ular olib boradigan tadqiqotlar yo‘nalishlarni muvofiqlashtirish xususidagi harakatlari 1915-yilda boshqa bir shaklda davom etgan. 12-sentabrda taniqli turkolog olim V.V.Radlovning xonadonida “Oltoyshunoslar to‘garagi” tuzilgan. Bu haqda A.N.Samoylovich V.A.Gordlevskiyga shunday xabar beradi: “Давнишняя моя идея объединить русских тюркологов начинает, по-видимому, осуществляться по моей инициативе 12 сентября основан на квартире Радлова частный кружок «алтаистов» (турецко-монгольско-манджурский); его задачи: объединение научной работы, установление планомерности, подведение итогов, выработка программ, коллективная разработка вопросов, превышающих единенные силы. Были: Радлов, Котвич, Руднев, Штернберг, Владимирцов и я” [Баскаков, 1973: 88]. To‘garakning uchinchi yig‘inidan V.V.Bartold ham ishtirok etgan. V.V.Radlov vafotidan keyin (1918) to‘garak “Radlov to‘garagi” deb nomlangan va uni Bartold boshqargan. 1930-yilga qadar faoliyat ko‘rsatgan [Кононов, 1968: 6] ushbu to‘garakning yig‘inlarida ko‘proq turk tillariga oid masalalar muhokama qilingan [Самойлович, 1924: 509].

#### **Turk xalqlari tillarini yaqinlashtirish, alifbolarini isloh qilish harakatlari**

Shuni ta’kidlash joizki, XX yuzyillik boshlarida, ayniqsa, 20-yillarda turk xalqlari adabiy tillarini jonli tillarga yaqinlashtirish, bu jarayonda qardosh tillardagi mushtaraklikni saqlash, arab alifbosiga asoslangan yozuvni isloh qilish yoki uni boshqa alifbo bilan almashtirish singari masalalar ustida qizg’in bahslar bo’layotgan edi. Tataristonda [Курбатов, 1972: 126-139], Qozog‘istonda [Кенисбаев, Мысабаев, Неталиева, 1972: 66-74] arab alifbosi isloh qilinib, maktab va matbaa ishlariga joriy qilindi. Bu davrda O‘zbekistonda ham shunday harakatlar boshlandi. Fitrat tuzgan “Chig‘atoy gurungi” jamiyati 1919-yilda alifboni isloh qilish lozimligini kun tartibiga qo‘ydi [“Чигатой гурунги”нинг имло тўдаси, 1919, 24 май; “Чигатой гурунги”нинг..., 1919: 13 июн]. Shundan keyin turli munozaralar bo‘ldi, qator anjumanlar o‘tkazildi [Маориф ва маданият ходимларининг иккинчи ўлка курултойи, 1922; Тил ва имло курултойи, 1921; Ўзбек имлосининг ислоҳи тўғрисида пропесўр Поливанип докладининг асоси, 1922]. 1923-yilda arab alifbosiga asoslangan o‘zbek yozuvi isloh qilinib, amalda qo‘llana boshladi [“Туркистон”, 1923, 31 октябрь; Туркистон Жумхурияти маориф комиссарлигининг Туркистон ўзбекларининг имлолари тўғрисидаги берган буйруғи, 1923]. Natijada Tatariston, O‘zbekiston va Qozog‘iston ziyolilarining ko‘pchiligi isloh qilingan arab alifbosi tarafdori bo‘lib chiqdilar [Худойбердиев, 1996: 88-97; ЦГАОР, ф. 1318, оп. Ид. 1700, л. 1].

Ozarbayjonda esa 1922-yildan lotin yozuviga o‘tish harakati kuchaydi. 1923-yilda lotin alifbosi davlat yozuvi deb belgilandi [Бакинский рабочий, 1923]. Lotin alifbosini targ‘ib qilish maqsadida lotin yozuvida “Jeni yol” nomli gazeta chiqarildi. Gazetaning birinchi sonida 34 harf va bir tutuq belgisidan iborat “Yangi turk alifbosi” e‘lon qilindi, ozarbayjon tilini milliylashtirish bo‘yicha qator maqolalar berildi [Jeni yol, 1922: № 1].

Turk xalqlari madaniy hayotida kechayotgan bunday o‘zgarishlar o‘z mafkuraviy tamoyillarini shakllantirayotgan bolsheviklar hokimiyatining til siyosatiga mos emasdi. Chunki Tatariston, O‘zbekiston, Qozog‘iston islohchilari bilan Ozarbayjon lotinchilari orasida yozuv to‘g‘risidagi qarashlar ikki xil bo‘lsa-da, tilning keyingi taraqqiyotini belgilash borasidagi fikrlarda mushtaraklik mavjud edi. Munozaralarda tilning milliy xususiyatlariga e‘tibor berilib, omma uchun tushunarsiz o‘zlashma (arabcha, forsha, ruscha) so‘zlar o‘rniga turkiy so‘zlarni olish yoki ularning tushunarli, o‘zlashib ketgan qismini turk tillari tovush xususiyatlariga moslashtirish, qardosh tillar o‘rtasidagi tarixiy birlikni saqlashga katta ahamiyat berilmoqda edi. Ana shu davrda bolsheviklar til siyosatining tashabbuskor va targ‘ibotchilari bo‘lgan olimlar turk xalqlari alifbolari to‘g‘risidagi bahslarda bir necha marta rus yozuvining afzalliklari xususida fikr bildirdilar.

### **Birlashtirmoq uchun bo‘lmoq siyosati: til va alifbo masalasi**

I.Stalin bolsheviklar partiyasining XVI syezdida qilgan yakunlovchi nutqida Leninning milliy masalaga oid tadbirlarni amalga oshirishda rioya qilinishi kerak bo‘lgan “birlashtirmoq uchun bo‘lmoq” fikrini keltirgan. Mantiqan olib qaraganda, bunda qarama-qarshilik bordek tuyuladi. Shu bois butun narsani nega “bo‘lmoq” kerak, nima uchun bo‘linganni yana “birlashtirmoq”qa ehtiyoj bor, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Lenin “birlashtirmoq uchun bo‘lmoq” fikrida butun boshli hududlarni parchalab, bo‘lib Rossiyaga, parchalangan hududlardagi millatlarni esa rus millatiga qo‘shishni nazarda tutgan edi.

Bu qarash I.Stalinga juda ma’qul keladi. Shu bois u “birlashtirmoq uchun bo‘lmoq” fikrini marksistik dialektikaning hayotiylikini bildiradi, milliy masalada bolsheviklar uchun har qanday mustahkam qal’alarni egallash imkonini beradi, deb izohlaydi: “Ленин иногда изображал тезис о национальном самоопределении в виде простой формулы: «разъединение для объединения». Вы только подумайте – разъединение для объединения. Это отдаёт даже



парадоксом. А между тем эта «противоречивая» формула отражает ту жизненную правду марксовской диалектики, которая дает большевикам возможность брать самые неприступные крепости в области национального вопроса» [Сталин, 1931: 9-10].

Aslida, Rossiyada bunday qarashning paydo bo'lishi Pyotr I ga borib taqaladi. Uning o'z vorislariga qoldirgan vasiyatnomasida Yevropo va Osiyo davlatlarini parchalab tashlash, ularni Rossiyaga bo'ysundirishning bosqichlari aniq dalillar bilan bayon qilingan [Necip Fazıl Kısakürek, 1992: 79-84]. Ushbu vasiyatnoma ko'rsatmalariga amal qilgan chorizm ma'murlari milliy tillar, milliy tillarning alifbosi, imlosini ham imkoni boricha o'zaro yaqin tillardan ajratish, ularga bosqichma-bosqich rus alifbosini joriy etib borishni mo'ljallashgan. Bu masala davlatning keying taqdirini hal qiladigan, davlatning ustuvor siyosatini belgilaydigan eng muhim vazifalardan biri sifatida qaralgan.

Masalan, sir tutilgan maxfiy komissiya tomonidan polyak tili uchun ishlab chiqilgan rus alifbosi asosidagi loyihani Nikolay I ning shaxsan o'zi ko'rib chiqqan. U loyihadagi ayrim harflar shaklini o'zgartirgan va rus yozuvini Rossiyadagi boshqa xalqlarga ham tatbiq etish fikrini bildirgan [Левин, 1931: 6]. Chorizm vaziri Milyutin “qilich bilan boshlangan ishini rus yozuvi yakunlashi kerak” (“русские письма должны закончить то, что начато мечом”), degan qarashni ilgari surgan [Левин, 1931: 5]. Turkiston general-gubernatori K. fon Kaufman esa mahalliy tillarga rus alifbosini hech qanday o'zgartirmasdan joriy qilish, uning boshqa tillarni birlashtirishdagi muhim ahamiyati haqida maorif vaziri D.A.Tolstoyga xat yozgan [Из переписки..., 1883: 5-7]. Uningcha, rus alifbosi har qanday sharq tillari fonetikasini ifodalay oladi:

“Мое личное мнение в данном случае, основанное на серьезном обсуждении этого важного вопроса и имея в виду главную цель, которую должна иметь транскрипция, именно облегчить начало к изучению государственного языка нашего и тем дать средство к объединению различных народностей, заключается в необходимости, чтобы все учебные округа, в которых есть инородцы, приняли для транскрипции русскую азбуку в том виде, какою она изучается в наших школах, без всяких изменений и дополнений диакритическими и другими знаками” [Из переписки..., 1883: 6-7].

Orenburg okrugi noziri P.A.Lavrovskiy ham K. fon Kaufman fikrlarini to'la qo'llab-quvvatlaydi: “самое лучшее, вернейшее и простейшее средство заключается в применении к татарскому и киргизскому языкам русской азбуки без всякого изменения и дополнения” что имеет “глубокий смысл и политический в силу объединения народов одним правительственным алфавитом, а через него и языком государственным” [Из переписки..., 1883: 8].

Chorizm davrida boshqa, xususan, turk xalqlariga rus alifbosini joriy qilish bo'yicha ma'lum bir ishlar amalga oshirilgan. Lekin aholisi soni ko'p, o'z yozuviga ega bo'lgan xalqlarga rus alifbosini joriy etish yuzasidan qilingan harakatlar samarasiz yakunlangan [Левин, 1931: 4-9]. Shundan keyin asosiy e'tibor yozuvi bo'lmagan xalqlarga qaratilib, ularga rus alifbosi kiritilgan. Oltoy [Суразакова, Тыбыкова, Чумакаева, 1982: 37-41], yoqut [Петров, 1972: 208-224], chuvash [Петров, 1982: 92-96], cherkes, kabardin, abxaz, qorachoy-bolqor [Хабичев, 1982: 97-106] shor [Донидзе, 1972: 205-207], hakas [Чанков, 1972: 183-188] singari kam sonli aholini xristianlashtirish maqsadida rus alifbosi joriy qilingan.

N.I.Ilminskiy va uning maslakdoshlari XIX yuzyillik oxiri va XX yuzyillik boshlarida bunday harakatni yanada kuchaytirishgan. 1907-yilda Rossiyadagi turk xalqlarini rus yozuviga o'tkazish to'g'risidagi hukumatning maxsus farmoni chiqqan. Rossiyadagi g'ayrirus millatlar

tillarining qo'llanish doirasini cheklash siyosat darajasiga ko'tarilgan. Ushbu masala Rossiya Davlat Dumasining bir necha yig'inlarida qizg'in muhokama qilingan bo'lsa-da, mahalliy tillar mavqeyini ko'tarish borasida hech qanday amaliy ish qilinmagan.

### **Milliy tillar uchun rus alifbosining targ'ib etilishi**

Bolsheviklar hokimiyati hukmronligining dastlabki yillaridanoq chor Rossiyasi davridagi til siyosati davom ettirildi. Turk xalqlari tillarini soddalashtirish, arab alifbosi asosidagi yozuvni isloh qilish haqidagi munozaralar davom etayotgan bir davrda, rus olimlari rus alifbosining afzalligi, har qanday til tovushlarini ifodalash uchun harflar sonining ko'pligi haqida yoza boshladilar.

1924-yildan sharqshunoslik bilan shug'ullanadigan tashkilotlarga sobiq ittifoqdagi Sharq xalqlari yozuvlarini yevropo alifbosi asosida tubdan o'zgartirish to'g'risida ko'rsatma berilgan: “народности без письменные или неустановившейся письменностью, которые в первую очередь, будут обслуживать проектируемое Отделение Союзного Востока Института Востоковедения, охватывают: а) на северном Кавказе в круглых цифрах до 2 милл. Человек яфетидов с 4-мя главными языковыми группами черкесо-абхазской (500 тыс.чел.), чеченской (500 тыс.чел.), дагестанской (650 тыс.чел.) и осетинской (250 тыс.чел.); б) восточно финские языки до 2 ¼ милл.чел., гл.обр., Востока ЕВР. России и Западной Сибири с языками: мордовской (около 1 милл. Чел.), мари (черемисский ок. 450 тыс. чел.), коми (зырянский ок. 300 тыс. чел.) вотский с пермяцким (ок. 500 тыс. чел.), вогульский и остяцкий в Сибири и др.; в) многие тюркские народности с молодой или возникающей письменностью числом до 7,5 милл. чел., в восточной ЕВР. России, Сибири и Туркестане, в том числе: языки киргизский (ок. 2 милл. чел.), тюркские яз. Туркестана (узбекский и др., ок. 2 ½ милл. чел.), башкирский (ок. 1 ½ милл. чел.), чувашский (ок. 1 милл. чел.), тюркские языки Алтая (“ойроты” и др. ок. 200 тыс. чел.), якутский (ок. 250 тыс. чел.), наконец, кавказский горцы-тюрки (ок. 100 тыс. чел.); г) языки с установившимся религиозным письмом, требующим при современном подходе к вопросам культурного развития масс коренной реформы письменности на основе европейского алфавита, таковы-монголы, всего 0,5 милл. чел. – в том числе языки калмыцкий (до 200 тыс. чел.) и бурятский (около 300 тыс. человек) и все остальные тюрки” [Яковлев, 1924: 459].

Ushbu matndagi “yevropo alifbosi asosida tubdan o'zgartirish” aslida, u davrda, “rus alifbosi asosida tubdan o'zgartirish”, degan ma'noni anglatgan.

L.Jirkov va N.Yakovlevlarning 1925-yilda “Новый Восток” jurnalida e'lon qilingan maqolalarida ham shunday fikrlar ilgari surilgan [Жирков, 1925: 223-235; Яковлев, 192: 236-242]. L.Jirkov lotin, rus va arab alifbolarining ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qilib, lotin alifbosining bir necha kamchiliklari, harflar sonining kamligi haqida yozadi: “при наличии указанных достоинств у латинского алфавита есть и много недостатков. Основной недостаток – чрезвычайная малочисленность знака” [Жирков, 1925: 225]. Shu sababli bunga yangi harflar qo'shish zarurati tug'iladi, deydi. Rus yozuvining imkoniyati, ustunligi va kamchiliklari to'g'risida esa shunday mulohazalarini bayon qiladi: “Русский алфавит имеет и такие достоинства, которые не присущи латинскому. Главное – в нем больше знаков. Если на его основа создавать алфавит какого –нибудь другого языка, то мы будем иметь больше шансов на то что знаков хватит; во всяком случае, нам придется больше приспособлять готовое, чем изобретать новое... Какие же технической точки зрения недостатки у нашего алфавита. Их немного, но они, конечно есть” [Жирков, 1925: 226]. L.Jirkovning ushbu fikrlarida mahalliy xalqlar tillari alifbolarini rus yozuviga o'tishga da'vat qilishi yaqqol sezilib

turgan bo‘lsa-da, to‘g‘ridan-to‘g‘ri rus alifbosiga o‘tish haqida fikr bildirmaydi. U lotincha-ruscha harflar asosida alifbo tuzishni tavsiya qiladi: “Если мы возьмем 26 латинских букв и присоединим к ним все те русские буквы, которые имеют форму отличную от латинских – таковых 18 – мы получим огромный алфавит в 44 буквы. Этого количества знаков безусловно хватит для записи любого языка” [Жирков, 1925: 226]. N.Yakovlev maqolasida ham aynan shu mazmundagi fikrlar bayon qilingan [Яковлев, 192: 236-242].

Bundan tashqari, ayrim rus olimlari orasida turk xalqlarini faqat rus alifbosiga o‘tkazish kerak, degan qarash ham bor edi. Arxiv hujjatlariga ko‘ra, Markaziy Qo‘mitaning targ‘ibot-tashviqot bo‘limi 1922-yilda Mamed og‘a Shataxtinskiy tuzgan lotin alifbosi loyihasini Xalq Komissarlari Kengashiga muhokama qilishga yuborgan [ЦГАОР, ф. 1318, оп. Ид. 1700, л. 1]. Ushbu masalani ko‘rib chiqish va unga xulosa berish uchun Gismatulin, Aliyev, Boykov, Gordlevskiy va Musayevlardan iborat hay‘at tuzilgan. Moskva Sharqshunoslik instituti rektori Gismatulin raisligida 1922-yil 27-sentabr kuni o‘tkazilgan birinchi majlisda Shataxtinskiy loyihasi madaniy-ijtimoiy munosabatlar jihatidan ahamiyatga ega o‘ziga xos ish sifatida baholangan, xulosa berilgan [ЦГАОР, ф. 1318, оп. Ид. 1700, л. 1]. 1923-yil 17-fevralda o‘tkazilgan yig‘ilishda esa V.A.Gordlevskiy boshqa hay‘at a‘zolarining fikrlarga qarshi borib, turkiy xalqlar uchun rus yozuvini joriy qilish lozim, chunki barcha Sharq xalqlari umumyevropa madaniyatini rus tili orqali o‘rganadilar, degan qarashni bildirgan. Bu haqda majlis bayoni shunday guvohlik beradi: “Проф. Гордлевский реформу татарского правописания считает половинчатой и предпочитает перейти к русскому шрифту, так как все народы Востока будут приобщаться к общеевропейской культуре через посредство русского языка” [Базиянц, 1976: 75-77; Базиянц, 1979: 21-23].

Rus yozuvining afzalliklari, qulayligi to‘g‘risidagi o‘rtaga tashlangan bunday fikrlar, tizimli targ‘ibotlar esa mahalliy xalqlar vakillari, ziyolilari, tilshunoslari munosabatlarini bilish maqsadida juda ehtiyotkorlik bilan e‘lon qilingan edi. Bunday qarashlar o‘z davridayoq keskin qarshilikka uchragandan keyingina ozarbayjonlik ziyolilar tomonidan ilgari surilayotgan lotin yozuviga o‘tish xususidagi harakatlar qo‘llab-quvvatlangan.

#### **Maxsus komissiya va uning vazifalari**

Mahalliy aholini arab alifbosidan lotin yozuviga o‘tkazishga davlat miqyosidagi muhim ish sifatida qaralib, maxsus komissiya tuzilgan. Uning zimmasiga joylardagi munozaralarda faol qatnashish, tashviqot-targ‘ibot ishlarini lotin alifbosi foydasiga hal etish, alifbo loyihalarini tayyorlashni boshqarib borish, maxsus to‘plamlar chop ettirib borish kabi qator vazifalar yuklatilgan:

“В виду государственной важности вопроса о замене арабского алфавита латинским, при всей его недоступности превратившегося от религиозного в родной происхождения и в частности в автономных восточных республиках и областях РСФСР, а так же принимая во внимание необходимость урегулирования и сосредоточения всего начатого по пути к этому в отдельных областях и республиках по разным направлениям отдельных инициатив в руках федерального центра, организуется при НКН специальная комиссия, задачей коей является:

- а) всестороннее изучение этого вопроса как с теоретической точки зрения, так и с практической;
- б) согласование всех шагов и намерений по этому вопросу в отдельных автономных единицах на местах путем созыва конференции из представителей последних и пр;
